

SURXON DAVLAT QO'RIQXONASI HUDUDIDAGI ZARAFSHON ARCHASI (*JUNIPERUS SERAVSCHANICA*) NING TARQALISH AREALI

Safarova Ruzigul Tuxtayevna, b.f.n. v.b., dotsent,
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Surxon davlat qo'riqxonasidagi mavjud archazor o'rmonlar asosiy negizi bo'lgan zarafshon archasi (*Juniperus seravschanica*) ning tarqalish areali, sistematik guruhlari biologiyasi, ekologiyasi va morfologik ko'rsatkichlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Surxon davlat qo'riqxonasi, Zarafshon archasi, piramidasimon, Xo'janqo bo'limi, Ko'hitang tog'i, Qizilolma, Vandob, Cho'lbayir hududlari.

Аннотация. Описаны ареал, систематические факторы, биология, экология и морфологические показатели можжевельника можжевельного (*Juniperus seravschanica*), который является основной основой существующих арчевых лесов Сурханского государственного заповедника.

Ключевые слова: Сурханский государственный заповедник, Зеравшанский свод, пирамидальный, участок Ходжанго, гора Кохитанг, Кызылординский, Вандобский, Чолбаурский районы.

Abstract. The distribution area, systematic factors, biology, ecology and morphological indicators of juniper juniper (*Juniperus seravschanica*), which is the main basis of existing juniper forests in the Surkhan State Reserve, are described.

Keywords: Surkhan state reserve, Zarafshan arch, pyramidal, Khojango section, Kohitang mountain, Kyzylolma, Vandob, Cholbair regions.

Surxon davlat qo'riqxonasidagi mavjud archazor o'rmonlar ninabargli daraxtlarning faqat bir turi, ya'ni zarafshon archasidan (*Juniperus seravschanica* tarkib topgan bo'lib, archazorlar fazalarida boshqa daraxt va buta turlaridan zarang, uchqat, yovvoyi bodom, namatak, igr'ay hamda luftak kabi o'simliklar keng tarqalgan va archazorlarda dominant tur sifatida namoyon bo'lmaydi. Zarafshon archasi buyi 10-15 metrga boradigan dimetri 2-3 metr bo'lgan daraxt bo'lib sharsimon, konussimon, piramidasimon yoki yoyiq shaklda o'sadi. Umri 1000 yilgacha boradi. Archa qurg'oqchilikka chidamli bo'lib, tabiiy sharoitda suvni saqlash va tuproqni muhofaza qilish vazifalarini bajaradi. Zarafshon archasi qo'riqxonaning 1000 metrdan yuqori bo'lgan barcha hududlarida archazor o'rmonlarni hosil qilgan, ayniqsa Shalqon bo'limi hududida qalin va keksa yoshli daraxtlardan tarkib topgan archazorlar o'ziga xos manzarani hosil qilgan. 2024 yil yanvar va fevral oylari oxirlarida qorning yog'ishi ko'pgina o'simlik novdalarini va archalarning yaproqlari sovuq urganligi kuzatildi. Yilning boshlanishidan yog'ingarchilik miqdori kam bo'lganligi sabab yer osti zaxira suvlarining kamayib ketganligi hamda havoning harorati ko'tarilib ketishi kuzatildi. Bu yilga archa yaproqlari sarg'ayishi sezilarli darajada kamaygan. Aprel, may va iyun oylarida yomg'ir yog'ish natijasida o'simliklar oldingi yillarga qaraganda havo iqlimi mo'tadil bo'lganligi sababli vegetatsiyasi ko'proq davom etdi.

Surxon davlat qo'riqxonasi hududdagi archazor o'rmonzorlari atrofdagi qishloqlarning suv bilan ta'minlanib turishida hamda hayvonot olamining yashash makoni sifatida katta ahamiyatga ega. Shu sababli archazor o'rmonzorlarini o'rganish va ilmiy nuqtai nazardan ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

№1 sinov maydonchasi — Xatak bo'limining Xo'jaksar masivida Kuyukdara hududida joylashgan bo'lib, dengiz sathidan 1600 metr balandlikdagi hududda, maydoni 100m², shimoliy yonbag'irda. Asosiy edificator tur Zarafshon archasi (*Juniperus seravschanica*) bo'lib, ularning maydonchadagi soni 3 tup. Ushbu jamoada 1 tup zarang, 2 tup uchqat, 5 tup na'matak, daraxt bo'lib,

3 — yarusda (quyi kavatda) lola, ilqoq, shirach, oqkarrak, tatar chuchmomasi, qora andiz, oq shuvoq, dorivor qoqi kabi o'simliklar uchraydi. Dorivor qoqi 13.03.2024 yil gullagani kuzatildi. Qoqi may oyining oxirlarida mevasi pishib yetildi. Zarang daraxti 30.03.2024 yilda shira harakatini boshlagan. Aprel oyining ikkinchi o'n kunligida gullay boshladi. Na'matak o'simligi 30.03.2024 yilda shira xarakati boshlandi. Aprel oyida barg yozib, may oyida gullagani kuzatildi. Lolalar 28.03.2024 yilda gullash jarayoni kuzatilgan. Gullash fazasi may oyining oxirlarigacha gullashda davom etdi. 20.06.2024 yilda dala tadqiqot ishlarini olib borganimizda lolalarning mevalari pishib yetilgani kuzatildi. Iyun oyida Shirachlar esa 24.03.2024 yilda barglarining yozilishi kuzatilgan. 18.06.2024 yilga kelib mevasi pishish fazasida.

№2 sinov maydonchasi — Xo'janqo bo'limidagi Tolbuloq hududida joylashgan, dengiz sathidan 1678 m balandlikda. Ushbu hududda (maydoni 250 m²) 3 tup Zarafshon archasi bo'lib, ushbu tur asosiy edificator tur hisoblanadi. Ushbu jamoada 1 tup na'matak, 1 tup uchqat, bodom, sariq do'lana o'sadi. Quyi yarusda shuvoq, bug'doyiq, qo'ng'irbosh, yovvoyi arpa, oq karrak, kiyik o'ti, lola, tog'arpa, yaltirbosh ko'rimsiz qo'ziqulloq va boshqa o'simliklar o'sadi. Na'matak o'simligi 30.03.2024 yilda shira harakati boshlandi. Lolalar 29.03.2024 yilda gullash jarayoni kuzatilgan. Gullash fazasi qo'riqxonaning pastgi qismida may ikkinchi o'n kunligida meva berish fazasida gullari quriy boshlagani kuzatildi. oxirlarigacha gullashda davom etdi Uchqat 26.03.2024 yilda kurtaklar bo'rtib boshlagan. Aprel oyining boshlarida barglari yozilib, may oyida gullagani kuzatildi. Papov burmanqorasi gullashi 29.03.2024 yil kuzatildi. 20.04.2024 yilda urug'lashni boshladi. May oyining boshlariga kelib mevalari pishib yetildi.

№3 sinov maydonchasi. Shalqon bo'limidagi dengiz sathidan 1500 metr balandlikda joylashgan. Ushbu maydonchada edificator tur Zarafshon archasi 5 tup bo'lib, daraxtlardan 3 tup zarang, 2 tup uchqat, 1 tup yovvoyi bodom uchraq, 2 tub qizil do'lana, 1 tup yovvoyi nok, 2 tup chiya, 2 tup achiq bodom uchraqdi. Quyi qavatda xandeliya, dalachoy, kiyik o'ti, yovvoyi archa, shuvoq, lola, qirqbo'g'in, ko'rimsiz qo'ziqulloq, shirachlar va piyozdolar

oilasi o'simliklari o'sadi. Shular jumlasidan shirachlar 24.03.2024 yilda barglarining yozilishi boshlandi, Xozirgi kunga kelib mevasi pishish fazasida. Piyozdoshlar oilasi 28.03.2024 yilda gullash jarayoni kuzatilgan, gullashi va meva berishi aprel-may oylariga tug'ri keladi. Kiyik o'ti 26.03.2024 yilda barglarining yozilishi boshlandi. Xozirgi kunga kelib qo'riqxonaning yuqori qismida gullash fazasi davom etmoqda. Qorsevar asarun 30.03.2024 yilda sinama maydoncha atrofida gullagani kuzatildi bo'lsa 19.04.2024 yilda mevasi pishib etildi.

№4 sinov maydonchasi. Sherjon bo'limidagi dengiz sathidan 1600 metr balandlikda joylashgan. Ushbu maydonchada edifiktor tur zarafshon archasi (6 tup) bo'lib, daraxtlardan 3 tup zarang, 2 tup uchqat, 1 tup yovvoyi bodom uchrab, quyi qavatda xandeliya, dalachoy, kiyik o'ti, yovvoyi archa, shuvoq, lola va boshqa o'simliklar o'sadi. Bu sinama maydonchasida qolgan bo'limlardagi kabi o'simliklardagi o'zgarishlar kuzatilgan. Qolgan sinov maydonchalarda ham qolgan bo'limlarniki singari kuzatishlar olib borilgan.

O'simliklarning qalin o'rmonlar hosil qilgan hududlari Xatak bo'limidagi Kattatog', Olmabuloq, Sovuqbuloq, Qobil changali, Shalqon tog'idagi Katta shamolli, Kichik shamolli hududlari hisoblanadi, ushbu hududlarda asosiy edifikator tur zarafshon archasi bo'lib, ayrim joylarda qalinligi 25 m² hududga 6 — 7 tupni tashkil etadi. Hududlarning dengiz sathidan balandligiga bog'liq

ravishda quyi kavatdagi o'simlik turlari o'zgarib boradi. Masalan 1200—1400 m balandlikdagi hududlarda yovvoyi bodom, zarang, uchqat, na'matak, dalachoy, shirachlar, lolakizg'aldok, ok karrak, piyozlar, zangpoya kabi o'simliklar uchrab efemer o'simliklar ustunlik kiladi. 1800 — 2000 m balandlikdagi hududda esa zarang, lola, kiyik o'ti, dalachoy, ayiqto'von, piyozdoshlar, bo'yimadoron, shuvoqlar quyi qavatlarni hosil qilgan.

Xulosa. Ko'hitang tog'ining o'rta va yuqori qismlari uchun o'simliklar jamoasida zarafshon archasi asosiy edifikator tur hisoblanadi. Archazor o'rmonlari qo'riqxona tashkil etilguncha bo'lgan davrda Shalkon, Sherjon, Qizilolma, Vandob, Cho'lbayir hududlarida ayniqsa, ko'plab kesilgan. Hozirgi kunda archazor o'rmonlarining tabiiy tiklanishi jarayoni ancha yaxshi bo'lib, yosh archalar (balandligi 0,5— 1,5 m) ushbu hududlarda 1 ga hududga 8—15 ta ni tashkil etadi.

Mazkur davrdagi tadqiqotlarda Surxon davlat qo'riqxonasi uchraydigan va Ko'hitang tog'lari uchun endem o'simlik turlarining bioekologik xususiyatlari ham o'rganildi. A.J. Ibragimov tomonidan 2006-2010 yillarda olib borgan tadqiqotlar natijasida aynan Ko'hitang tizmasidagi endem o'simliklarning 10 oila, 19 turkumga mansub 22 turi aniqlangan. Bu esa qo'riqxona umumiy florasining 2,96% tashkil etadi. R.V. Kamelin ma'lumoti bo'yicha Ko'hitang tizmasi florasini 1000 turdan kam emasligini nazarda tutsak, tizmaning endem turlari floraning 2,2% tashkil etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Yue Xu, Runguo Zang. Conservation of rare and endangered plant species in China // iScience 26, 106008, February 17, 2023. <https://doi.org/10.1016/j.isci.2023.106008>.
2. Hernández-Yáñez H, Kim SY, Che-Castaldo JP (2022) Demographic and life history traits explain patterns in species vulnerability to extinction. PLoS ONE 17(2): e0263504. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0263504>
3. O'Grady JJ, Reed DH, Brook BW Frankham R. What are the best correlates of predicted extinction risk? Biol Cons. 2004;118: 513–520.
4. Dalin Zou, Youjin He, Qinyen Lin, Guofa Cui. Evaluation of the level of threat and protective classification of the vegetation of Makehe Forest in Sanjiangyuan Nature Reserve, west China // April 2007. Frontiers of Forestry in China. 2 (2): 179-184. DOI: 10.1007/s11461-007-0029-9.